

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**



**AZIZXON QAYUMOVNING 95 YILLIGIGA
BAG'ISHLANGAN**

**“AKADEMIK AZIZXON QAYUMOVNING
ILMIY-IJODIY MEROSI”**

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2021-YIL 25-YANVAR

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**



Azizxon Qayumovning 95 yilligiga bag‘ishlangan

**“AKADEMIK AZIZXON QAYUMOVNING
ILMIY-IJODIY MEROSI”**

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

2021-yil 25-yanvar

TOSHKENT – 2021

AKADEMIK AZIZXON QAYUMOVNING ILMIIY-IJODIY VA PEDAGOGIK FAOLIYATI HAQIDA

AZIZ QAYUMOVNING XAMSANAVISLIK VA UNING G‘OYALARI HAQIDAGI QARASHLARI

Shuhrat Sirojiddinov

ToshDO‘TAU rektori, professor

XX-XXI asr o‘zbek adabiyotshunosligida, ayniqsa, navoiyshunosligida akademik, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, O‘zbekiston xalq maorifi a‘lochisi hamda jamoat arbobi, Azizxon Po‘latovich Qayumovning xizmatlari katta. XX asr navoiyshunosligining shakllanishi va rivojlanishida katta o‘rin tutgan Oybek, V.Zohidov, G‘.G‘ulom, H.Olimjon, sharqshunos olimlar ishini davom ettirib, bu sohaning yanada takomillashib borishida ulkan ishlarni amalga oshirdilar. Zamondosh olimlar bilan yelkama-yelka turib, Navoiy, Z.M.Bobur, Maxmur, Nodira, Furqat, Hoziq, G‘oziy va boshqalarning ijodini mukammal ilmiy o‘rganish va nashrga tayyorlash, ularni tarqatish va targ‘ib qilish, ayniqsa, yoshlar orasida Navoiy ijodini kengroq targ‘ib qilish bo‘yicha olib borgan ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Azizxon Po‘latovich Qayumov Navoiyning “Xamsa” dostonlarini keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallab sharhlagan holda sodda, ravon tilda talqin qildilar. Navoiy ijodini yoritib, tushuntirib beruvchi maqolalar, ilmiy-tadqiqot ishlarini yaratdilar.

Navoiy “Xamsa”sining birinchi dostoni “Hayrat ul-abror” qanday yaratilganligi, shoirning bu asarida aks etgan teran ijtimoiy, falsafiy muammolar tarixiy davr hamda bugungi kun nuqtayi nazaridan keng tahlil etiladi. Sharq klassik adabiyotining, xususan, navoiyshunoslikning nozik bilimdoni – zarshunoslaridan biri sifatida haqli ravishda shuhrat topgan.

Aziz Qayumovning “Saddi Iskandariy” haqidagi monografik tadqiqoti nashr etilgan edi. Asar olimlar va keng kitobxonlar ommasi tomonidan qizg‘in kutib olindi va tez tarqab ketdi. Bu – xalqimizning Navoiy ijodiga buyuk mehri ifodasidir. Shuningdek,

akademik olim Navoiy ijodini tahlil etar ekan, unga asos bo'lgan manbalarga ham murojaat qiladi.

Nizomiyning buyuk mutafakkir sifatidagi dohiyona ma'naviy-ma'rifiy qarashlari yuksak umuminsoniy g'oyalarni o'zida mujassam etib, o'zidan keyingi jahon mumtoz shoirlari Xisrav Dehleviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylarni asl "xamsa"lar yozib, bir necha jahon adabiyoti durdonalarining paydo bo'lishiga ilhomchi bo'ldi. Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni Nizomiyning "Iskandarnoma" dostoniga javoban yozilgan. Hakim Nizomiyning "Iskandarnoma" dostoni ikki qismdan iborat, "Sharafnoma" va "Iqbolnoma" dostonlari jahon tarixiga oid yuksak badiiy qimmatga ega bo'lgan shoh asarlardir.

"Xudoyo jahon podshohi turost,
Zi mo xidmat oyad, Xudoyi turost..."
Xudoyo, jahon podshohi Sano,
Biza xizmatingda, Xudolig' Sano!
Na yong'ir yog'ar, to demassanki: "Yog'!"
"Chiqar" demasang ne unar yerda bog'...

degan misralar bilan boshlanuvchi "Sharafnoma" dostoni Iskandarning harbiy adolatli yurushlari haqida. Dostonning har bir bobi go'zal "soqiynoma"lar va nasihatlar ila boshlanadi.

Kel, ey, soqiy maydan manga quy qadah,
Necha sipqorib bas topayki farah.
Xarob et berib bodayi jomi xos,
Magar bu xarobotdan o'lgum xalos.

Mazkur dostondagi o'layotgan Doroning Iskandarga vasiyatiga oid ushbu misralar ta'sirchanligi bilan e'tiboringizni tortadi:

Bor uch orzuyim dilda tutgan nihon,
Jahon shohi baxtiga aylay ayon.
Biri ulki etma gunohsiz qatl,
Hukm ayla sen shoh kabi boadl.
Ki ikkinchisi toju taxti kayon,
Chu hokim bo'lu sen, na keltir ziyon.
Dilingdan qasossiz ajolat yurit,
Na bizning urug'ni zaminda qurit.
Uchinchisi qo'l ostima borlara,
Teginma haramimdagi yorlara.

kelmog'i bilan Bardada bo'ldi. Ozarbayjon adabiyotshunosligida bu hodisani Nizomiyning o'z ona yurti Ozarbayjonga mehru muhabbati, vatanparvarligining bir belgisi sifatida talqin etiladi. Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida ham Barda va uning hokimi No'shoba to'g'risida ko'p go'zal tasvirlar bor. Ular Nizomiy tasviriga o'xshash.

Iskandar va No'shoba mavzuining yoritilishini dostonidagi bir mustaqil doston kabi qaralsa bo'ladi. No'shobaning Iskandarni qonli urushlar fikridan chekintira olgan aqlli, zukko hukmdor sifatidagi Nizomiy tasviri haqqoniy, adolatli ish bo'lgan. Faqat No'shoba Iskandarning bu qaroriga faqat Barda uchungina erisha oldi. Fotihning yurishlari, urushlari davom etdi. Bunday muhoribalarning oqibati esa mudhish. Fotihlik va jahongirlik qonli, son-sanoqsiz qurbonlar orqaligina amalga o'shmog'i ma'lum. Barda va No'shobaning Nizomiy dostonidagi vasfi, bu o'lka va uning hukmdori bo'lmish yosh ayol va uning ayol yordamchilarining Nizomiy tomonidan tamomila ijobiy tasviri, albatta, shoirning o'z vatani va xalqiga muhabbatining ko'rinishlaridir.

Ustoz Aziz Qayumov tarixiy adabiy manbalarni tahlil qilar ekan, ularning hozirgi kundagi ahamiyatiga ham katta e'tibor qaratadi. Zero, tinchlik, adolat, insoniylik, vatanga muhabbat tuyg'ulari hamma vaqt ham dolzarbligicha qoladi.

MUMTOZ ADABIYOTNING BENAZIR OLIMI

Hamidulla Boltaboyev

Filologiya fanlari doktori, professor

Milliy adabiyotimiz tarixi qanchalik qadimiy va serqirra bo'lmasin, uning asosiy qismini o'zlashtirib, bu boy ne'matlardan millatdoshlarimizni bahramand qilish har kimga ham nasib qilmagan. Ayniqsa, qariyb uch ming yillik tarixga ega mumtoz adabiyotimizni tahlil va tadqiq qilish, uning asosiy bosqichlari va davrlarini izchil o'rganish nisbatan ozchilikka nasib qilgan. Ana shunday olimlardan biri Azizxon Qayumov domla edilar. Alp Erto'nga (Afrosiyob)dan tortib qadimgi toshbitiklargacha, Beruniydan Furqatgacha kechgan adabiyotimizning nafaqat bilimdoni, balki zukko tadqiqotchisi va nozik targ'ibotchisi edilar.

MUNDARIJA

<i>Sh.Sirojiddinov</i> . Kirish.....	3
I. AKADEMIK AZIZXON QAYUMOVNING ILMIY-IJODIY VA PEDAGOGIK FAOLIYATI HAQIDA	
<i>Shuhrat Sirojiddinov</i> . Aziz Qayumovning xamsanavislik va uning g'oyalari haqidagi qarashlari.....	6
<i>Hamidulla Boltaboyev</i> . Mumtoz adabiyotning benazir olimi	10
<i>Surayyo Karimova</i> . Chin do'stlik namunasi.....	13
<i>Saidjon Qosimov</i> . Ustozga ehtirom.....	15
<i>Salimxon Naziriy</i> . Ustoz bilan so'nggi suhbat.....	19
<i>Noila Asilova</i> . Ulug' olim, mo'tabar inson.....	23
<i>Ma'mura Rashidova</i> . Akademik Azizxon Qayumovning "Nizomiy "Xamsa"si talqini" asari xususida.....	31
<i>Kamola Po'latova</i> . Aziz Qayumovning teatr va dramaturgiyadagi o'rni.....	35
II. ENG QADIMGI DAVR YOZMA YODGORLIKLARI	
<i>Marg'uba Abdullayeva</i> . Mifologik qarash va afsonaviy mazmun ifodasi.....	39
III. MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK MUAMMOLARI	
<i>Jamahmatov Karomiddin Aynillo o'g'li</i> . Hoji Muhammad Shahdiy hayoti va ijtimoiy muhiti.....	45
III. ALISHER NAVOIY IJODINI O'QITISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI	
<i>Shoira Isayeva</i> . Ma'naviyat saboqlari.....	50
<i>Shahodat Usmanova</i> . Alisher Navoiy ijodida alloh tavhidi masalasi.....	52
<i>Raxmonova Shaxnoza Muxitdinovna</i> . Alisher Navoiy g'azallarini ifodali o'qitish tajribasidan.....	63
<i>Quvonchbek Mamiraliyev</i> . Navoiyning yetti vodiysi.....	67
<i>T.O. Norov</i> . Navoiy falsafasidagi ontologiyaga oid ayrim istilohlar izohi.....	72

IV. QO‘QON ADABIY MUHITI IJODKORLARI HAQIDA

<i>Roziyaxon Xabxonova.</i> Qo‘qon adabiy muhiti Aziz Qayumov talqinida.....	80
--	----

V. AZIZIYNING BADIY MAHORATI

<i>Islomov Zohidjon Mahmudovich.</i> Aziziyning adabiy merosi	87
<i>Fotima Ikromova.</i> Aziziyning “Navoiyga ta‘zim” she‘rlar to‘plami to‘g‘risida.....	92
<i>Alimov Ozodbek Sobirovich.</i> Navoiy nighidagi Jomiy shaxsiyati Aziziy tarjimasida.....	94
<i>Axmedova Shoir.</i> Azizxon Qayumovning essenavislik mahorati xususida.....	101
<i>Ozodbek Alimov.</i> Aziz Qayumovning tarjimonlik mahorati haqida.....	105

VI. ADABIYOTSHUNOSLIK

<i>Niyozmetova Roza Xasanovna.</i> XX asr o‘zbek adabiyotini o‘rganish masalasi.....	109
<i>Xurshida Xamrakulova.</i> Jadid adabiyotiga xos ma‘rifiy qarashlar.....	114
<i>Gulnoza Jo‘rayeva.</i> XX–XXI asr o‘zbek bolalar she‘riyatida hajv janri va uning taraqqiyot tamoyillari.....	119
<i>Nazarova Dilafruz.</i> Huvaydo she‘riyatida an‘anaviy obrazlar	125
<i>O‘.Yo‘ldoshev.</i> Qaro ko‘zim g‘azali haqida mulohazalar.....	131
Azizxon Qayumov ijodidan namunalar.....	137